

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10809453>

YASUNARI KAVABATANING "ANOR" HIKOYASIDA DARAXT OBRAZINING TALQINI

Muhammadjonova Go'zalxon

Farg'ona davlat universiteti adabiyotshunoslik kafedrasida dotsenti filologiya fanlari
doktori

Xomidova Zeboxon

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti o'zbek tili yo'nalishi 4-bosqich
talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Yasunari Kavabata ijodida daraxt obrazining o'ziga xosligi "Anor" hikoyasi misolida tahlilga tortilgan. Shuningdek, yozuvchining tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlarni ochishdagi mahorati tadqiq etilgan.

Kalit so'z va iboralar: obraz, daraxt, inson, tabiat, badiiy mahorat, o'ziga xoslik.

ABSTRACT

In this article, the uniqueness of the image of a tree in the work of Yasunari Kawabata is analyzed using the example of the story "Pomegranate". Also, the writer's skill in revealing the relationship between nature and man is researched.

Key words and phrases: image, tree, human, nature, artistry, originality.

АННОТАЦИЯ

В данной статье на примере рассказа «Гранат» анализируется своеобразие образа дерева в творчестве Ясунари Кавабата. Также исследуется мастерство писателя в раскрытии взаимоотношений природы и человека.

Ключевые слова и фразы: образ, дерево, человек, природа, художественность, оригинальность.

KIRISH

Obraz, badiiy obraz — voqelikni faqat san'atga xos usulda o'zlashtiradigan va o'zgartiradigan xarakterlovchi estetik kategoriya. Shuningdek, badiiy asarda ijodiy qayta yaratilgan har qanday voqea ham obraz deb yuritiladi.

Daraxt obrazi badiiy adabiyotda faol uchraydigan elementlardan bir hisoblanib, u oila, farzand, umr va shu kabilarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Qadimgi insonlar daraxtlarni mevali, mevasiz bo'lishiga qarab, ularning ham insonlar kabi jinsi bo'ladi dep o'ylashgan va bu badiiy adabiyotga ko'chib, ayollarni tasvirlashda mevali daraxtlarga, erkaklar esa mevasiz daraxtlarga qiyoslangan. Shuningdek, insonning tana a'zolarini tasvirlashda mevalardan foydalanilgani ko'rishimiz mumkin. Masalan, lablar gilosga, qovoq bodomga, yuzlar olmaga, soch majnuntolga o'xshatiladi.

Asarga har qanday obraz, detal bejiz kiritilmaydi. U ma'lum bir vazifani bajarishi lozim bo'ladi. Shunga ko'ra daraxtlar ham asardagi qahramonlarning ruhiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Biz quyida yapon adabiyoti vakili Yasunari Kavabataning "Anor" hikoyasi misolida anor daraxtining o'ziga xosliklari va asar qahramonlarining hissiy kechinmalarini ochib berishda uning tutgan o'rnini ko'rib chiqamiz.

Hikoya kuzning shamolli kunida anor barglari to'kilganligini aytish bilan boshlanadi. Kuz fasli odatda hijron, ayriliq, siniqlik ramzida kelishi barchamizga ayon. Shamol esa dil xiralik, bo'layotgan voqea, hodisaga qarshilik, isyon ramzi. Tun esa iztirob, qayg'u. Demak yozuvchi hikoya boshidanoq kitobxonni ana shu siniqlikka va bunga nisbatan isyon ruhi aks etganligi tayyorlaydi. Kuzda juda ko'p mevalar pishadi uzum, behi, olma va boshqalar. Yozuvchi nega aynan anorni tanlagan?

Qadim zamonlardan buyon anor hayot, to'kin-sochinlik, hosildorlik va muhabbat, tinchlik, xotirjamlik, qat'iylik yoki shiddatli harakatlar, jo'shqinlikni ko'rsatish uchun xizmat qilgan. Shu bilan birga anor serfarzandlilik, ichidagi donalari va ularning jipslashib turishi muastahkam oila va farzandlar inoqligining ramzi bo'lib keladi. Tongda hikoya bosh qahramoni Kimiko daraxtning barcha barglarini to'kilganini va

birgina anor daraxt tepasida qolganini ko‘radi. Anor barglar singari uzilib yerga tushgandek tasvirlanishi mumkin edi.

Lekin shamolli tun bo‘lishiga qaramay, u uzilmadi, mustahkam qoldi. Balki asar qahramonlari Kimiko va uning onasi ham yillar davomida "shamolli tunda" aziyat chekishiga qaramay, o‘z hayotlarini davom ettirishga harakat qilishayotgandir!?

Kimiko oyisiga anor haqida aytganida, undan "Men bo‘lsam uni unutgan ekanman" javobini olganida, ularni qanchalik yolg‘iz qolganini anglaganini yozuvchi yashirmaydi. Balki ochiq-oydin ko‘rsatadi. Jiyani bilan anorni uzishayotganda yana bir anorni ko‘rib qolishadi. Lekin olayotganida anor yorilib qoladi. Kimiko esa bunda o‘zini gunohkordek his qiladi. Bu ikki anor Kimiko va uning onasi edi...

Hikoya davomida Kenikchi frontga ketishidan avval Kimikoni ko‘rgani keladi. Yigit va qizning munosabatiga oydinlik kiritilmaydi, bu ish anorga yuklatiladi. Ya'ni anor muhabbat ramzi hisoblanadi. Kenikchi tishlab ketgan anorni oyisi Kimikoga berganida, oyisida otasidan qolgan ovqatni isrof bo‘lmasin deb, yeb qo‘yish odati bor ekanligi esiga tushdi. Bundan xursand bo‘ldi lekin tishlashni xohlamadi, uni kutishni qalbidan his qildi. Yozuvchi Kimikoning chin muhabbatini, Kenikchini frontda qat'iyat bilan xizmat qilib kelishini va voqea davomida ular mustahkam oila bo‘lishiga ishora qilish uchun birgina anor mevasidan ustalik bilan foydalangan.

Tabiat va insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tasvirlashda o‘zining alohida mahoratiga ega bo‘lgan yozuvchi Yasunari Kavabataning bu hikoyasi ham har bir kitobxonga alohida hissiyot ulasha oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. [*Yasunari Kavabata. Anor \(hikoya\)*](#)
2. *Izzat Sulon, „Adabiyot nazariyasi“, T., 1980.*